

UZBEKISTAN LAW REVIEW



ISSUE 2
2025

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2025
№2**

Xolmirov Begali Abdixamidovich

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bo'lim boshlig'i

**O'zbekistonda elektron valyuta (kripto-aktiv)
munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi
muammolar tahlili**

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные проблемы правового регулирования обращения электронных валют и криптоактивов в Республике Узбекистан. Автор освещает фрагментацию действующего законодательства, запрет криптоактивов в качестве средства платежа и конфликты, связанные с правами собственности. Также рассматриваются деятельность поставщиков услуг, технико-правовая природа смарт-контрактов и вопросы совершенствования системы «эскроу». В заключение статьи выдвигаются научно обоснованные предложения по приведению норм Закона «Об электронной торговле» в императивную форму.

Ключевые слова: Электронная валюта, криптоактив, цифровая экономика, имущественное право, смарт-контракт, система депонирования, поставщик услуг, блокчейн, платежная система, правовой анализ.

Abstract. This article analyzes the current problems of legal regulation of the circulation of electronic currency and crypto-assets in the Republic of Uzbekistan. The author highlights the fragmentation of current legislation, the prohibition of crypto-assets as a means of payment, and conflicts related to property rights. The activities of service providers, the technical and legal nature of smart contracts, and the issues of improving the "escrow" system are also studied. At the end of the article, scientifically substantiated proposals are put forward to bring the norms of the Law "On Electronic Commerce" into an imperative form.

Keywords: Electronic currency, crypto-asset, digital economy, property law, smart contract, escrow system, service provider, blockchain, payment system, legal analysis.

Аннотация. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida elektron valyuta va kripto-aktivlar aylanmasini huquqiy tartibga solishning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Muallif amaldagi qonunchilikdagi tarqoqlik, kripto-aktivlarning to'lov vositasi sifatida taqiqlanishi va mulk huquqi bilan bog'liq ziddiyatlarni yoritib bergan. Shuningdek, xizmatlar provayderlari faoliyati, smart-kontraktlarning texnik-huquqiy tabiati hamda "eskrou" tizimini takomillashtirish masalalari o'rganiladi. Maqola yakunida "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun normalarini imperativ shaklga keltirish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan takliflar ilgari surilgan.

Калит so'zlar: Elektron valyuta, kripto-aktiv, raqamli

iqtisodiyot, mulk huquqi, smart-kontrakt, eskrou tizimi, xizmatlar provayderi, blokcheyn, to'lov tizimi, qonunchilik tahlili.

I. Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi natijasida elektron valyuta va kripto-aktivlar jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendentsiyalardan chetda qolmasdan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida qator muhim qadamlar qo'ymoqda. Ammo yangi texnologik imkoniyatlar bilan birga huquqiy tartibga solish sohasida ham bir qator dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda elektron valyuta va kripto-aktivlar aylanmasini huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy muammolarini tahlil qilishga qaratilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tarqoq holatda bo'lib, ular asosan qonunosti hujjatlarni tashkil qiladi. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida jiddiy murakkabliklar va ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, kripto-aktivlarning to'lov vositasi sifatida taqiqlanishi, mulk huquqi bilan bog'liq ziddiyatlar, xizmatlar provayderlari faoliyatining huquqiy maqomini aniq belgilash zarurati, smart-kontraktlarning texnik-huquqiy tabiati hamda "eskrou" tizimini takomillashtirish masalalari chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

Shuningdek, O'zbekistonning Xalqaro mulk huquqlari indeksida o'z o'rnini topishi ham mazkur sohaning to'liq huquqiy regulatsiyasini talab qiladi. Maqolada qo'llanilgan qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali milliy qonunchilik normalarining o'zaro bog'liqligi va ziddiyatlari o'rganiladi. Xorijlik tadqiqotchilarning nazariy qarashlariga ham murojaat qilinadi. Tadqiqot natijasida "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun normalarini imperativ shaklga keltirish bo'yicha amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy asoslantirilgan takliflar ishlab chiqiladi.

II. Asosiy qism

O'zbekistonda elektron valyuta munosabatlarini tartibga solish borasida bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bir qancha kamchiliklarni kuzatish mumkin. Bu o'z navbatida elektron valyuta munosabatlarining subyektlari uchun ba'zi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar tarqoq holda bo'lib, asosan qonunosti hujjatlarni tashkil qiladi. Bu holat huquqni qo'llash amaliyotini murakkablashtiradi.

Elektron valyutalarni tartibga soladigan qonunlardan biri "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun (2019) bo'lib, qonunning 2 - moddasida Qonunning amal qilishi to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida to'lovlarni amalga oshirish hamda to'lov xizmatlari ko'rsatish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilagan. Ammo ushbu Qonunning amal qilishi kripto-aktivlarga doir operatsiyalarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Shunday

mazmundagi normani, ya'ni "O'zbekiston Respublikasi hududida kripto-aktivlarning to'lov yoki to'lovni qabul qilish vositasi sifatida qo'llanilishi" taqiqlanishi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3832 – sonli (2018) qarorda ham kuzatish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, kripto-aktivlarni to'lov qobiliyatining cheklanishi mazkur sohaning rivojlanishidagi ikkinchi muammo va kamchiliklardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. "O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3150-sonli qarorda grantlar, kreditlar va qarzarlar, shu jumladan, kripto-aktivlar va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar Agentlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanishi belgilangan.

"O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risida"gi NIZOM (ro'yxat raqami 3397, 2022-y.)ning 31-bandiga asosan Kripto-aktivlar egasi kripto-aktivlarni tasarruf etish huquqiga ega.

Fikrimizcha, yuqoridagi kripto-aktiv tushunchasiga berilgan ta'rif juda qisqa va tushunarsiz deyish mumkin. Muhokama qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 66-moddasiga ko'ra "Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak." deya e'tirof etilgan.

Mulk huquqi deganda mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishdan iborat ushbu uch element tushuniladi.

Mulk huquqining yana bir o'ziga xos xususiyati O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni va FKning 164 - moddasida belgilanishicha, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra, o'z hoxishi va manfaatlarini ko'zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Shu ma'noda mulkdor o'z mulkiga bo'lgan huquqlarini ixtiyoriy ravishda, o'z hoxishiga ko'ra amalga oshiradi. Mulkdorning o'z hoxishi deganda, uning o'z erki, irodasi bilan o'z manfaatlarini ko'zlab, uchinchi shaxslarning tazyiqsiz, g'ayrihuquqiy ta'sirisiz harakat qilishi nazarda tutiladi.

Mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra, o'z hoxishi va manfaatlarini ko'zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan kripto-aktiv tushunchasiga berilgan ta'rifda "mulkiy huquq", "egasiga ega" va "tasarruf etish huquqi" degan so'z birikmalari mulkka nisbatan foydalanishni cheklab, aynan unga egalik qilish va tasarruf etish huquqini ta'kidlab ko'rsatgan degan xulosaga kelish mumkin.

Buni misollarda ko'rib chiqamiz.

1. "Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi tartibga solish maxsus rejimi ("Tartibga solish qumdoni" maxsus rejimi) to'g'risida" NIZOM (2017)ning 3 - bandiga asosan "Maxsus rejim doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida kripto-

aktivlardan to'lov vositasi sifatida foydalanish yoki to'lovni qabul qilish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish taqiqlanadi".

2. "O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan kripto-aktivlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga kiritish tartibi to'g'risida"gi nizomning 23-bandida "emitent tomonidan chiqarilgan ta'minlangan tokenlar uchun kripto-aktivlardan ta'minot sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi" belgilangan.

25-bandiga asosan "utilitar tokenlardan emitentning ekotizimidan tashqarida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi".

3. "Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini amalga oshirish" qoidalarining 9-bandida "barqaror tokenlarni chiqarish va chiqarishni ro'yxatga olish, tokenlarni dastlabki taklifini joylashtirish maqsadida ta'minlanmagan tokenlarni chiqarish, chiqarishni ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va muomalaga kiritish taqiqlanadi" va 10-bandiga asosan "O'zbekiston Respublikasi hududida kripto-aktivlarni milliy va (yoki) xorijiy valyutaga sotish va sotib olish hamda kripto-aktivlarni boshqa kripto-aktivlarga ayirboshlash bo'yicha operatsiyalarini xizmatlar provayderlaridan tashqarida amalga oshirish taqiqlanadi", bundan qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar mustasno.

4. "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-son qaror 6-"V"-kichik bandiga asosan "O'zbekiston Respublikasi hududida kripto-aktivlarning to'lov yoki to'lovni qabul qilish vositasi sifatida qo'llanilishi" ta'qiqlanadi.

5. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunning amal qilishi kripto-aktivlarga doir operatsiyalarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda foydalanish bilan bog'liq bir qancha cheklashlarni ko'rish mumkin. Ushbu holatlar Xalqaro mulk huquqlari indeksi ro'yxatidan hattoki, O'zbekistonning yo'qligi sabablaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu Xalqaro mulk huquqlari indeksidan O'zbekistonning ham munosib o'rin topishi haqidagi topshiriqlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2019-yildagi "Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-son qarorida tegishli vazirlik va idoralarga "Mulk huquqini himoya qilish xalqaro indeksi mezonlarini inobatga olgan holda ta'minlashning zamonaviy baholash va tahlil qilish tizimini joriy etish bo'yicha" topshiriqlarni bergan.

Keyingi atamalarga o'tadigan bo'lsak, Kripto-aktivlar saqlanadigan kripto xamyonga "Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini amalga oshirish" qoidalarini (ro'yxat raqami 3379, 2022-y.)da "kripto-hamyon — kripto-aktivlarni saqlash va boshqarish uchun mo'ljallangan dasturiy yoki dasturiy-texnik vosita" ekanligi belgilangan.

Elektron pul va kripto-aktiv tushunchalariga berilgan ta'rifdan ham to'lov qobiliyatining cheklanganligini, elektron hamyon va kripto xamyon tushunchalariga berilgan ta'rifdan esa ular bir xil funktsiya va xususiyatlarga ega degan fikrga kelish mumkin. Aslida, kripto-aktivning funktsiya va qulayliklari naqdsiz pullarga qaraganda ancha

keng qamrovlidir. Kripto-valyutalar shaxsiy pullardir, ularni yuzaga keltirish davlat tomonidan amalga oshirilmaydi, balki o'z qo'llarida pul emissiyasi funksiyasini o'zlashtiradigan tarmoq foydalanuvchilari amalga oshiradilar. Kripto-valyutalar emitentning qarzi majburiyatlari emas, bu ularni naqd pul va naqd pulsiz to'lovlardan ajratib turadi. Amalda, foydalanuvchilar pulning funksiyalari sifatida qiymat o'lchovi, muomalada bo'lish vositasi, to'lov vositasi, to'plash vositasi kabi vazifalarni tushunadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu turdagi raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniqlashdagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy kategoriya sifatida kripto-valyutalarni eng to'g'ri ilmiy izohlash borasida konsensus mavjud emas. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish, uning informatsion tabiati, texnologik yangiliklari, pul mohiyatiga yangicha yondashuvlar pulning yangi shakllari va funksiyalarining paydo bo'lishi hamda asoslanishiga zamin yaratadi.

Navbatdagi masalani tahlil qiladigan bo'lsak, kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari — jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan ularning nomidan kripto-aktivlarni sotib olish, sotish, ayirboshlash, saqlash, chiqarish, joylashtirish va boshqarish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Xizmatlar provayderlari faoliyatining turlari quyidagilardan iborat: kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy va kripto-do'kon.

Xizmatlar provayderlari faoliyatining har bir turi bo'yicha alohida litsenziya beriladi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari kripto-aktivlarni sotib olish, sotish va (yoki) ayirboshlash bo'yicha operatsiyalarni faqat milliy provayderlar orqali qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Xizmatlar provayderi sohasida 2019-yil 20-dekabr kuni Janubiy Koreyaning Koba Group kompaniyasi O'zbekistonda kripto-birja ochish uchun birinchi litsenziyani oldi. Hujjat Prezident huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tomonidan e'lon qilindi, deya xabar beradi agentlik matbuot xizmati.

Koba Group o'zini raqamli iqtisodiyotda turli yechimlarni, jumladan blokcheyn texnologiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan texnologik kompaniya sifatida ko'rsatadi.

Perugini M.L. va Checco P.D. dastlabki tadqiqotlaridan birida smart-kontraktlar — bu "kontraktlarning o'zi bo'lmay, balki onlayn-kontraktlarni ijro etish uchun kanallar" ekanligini qayd etganlar. Cuccuru P. smart-kontraktlar yuridik kuchga ega bo'lmay, yuridik ijro etiladigan kontraktlarni tuzish yoki bajarish uchun vositagina ekanligini ta'kidlaydi.

Texnik jihatdan, smart-kontrakt — bu kompyuter protokoli bo'lib, u munosabatlar elementlarini shakllantiradi va unda kodlashtirilgan shartlarni, kodlashtirilgan boshlang'ich shartlar bajarilgani singari avtomatik ravishda bajaradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, bu kontragent kodda qayd etilgan muayyan talablarni bajarganidan

keyin, jismoniy shaxs ishtirokisiz, uning majburiyatini uning o'rniga avtomatik bajaruvchi vositadir.

2. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, eskrou xizmati - elektron tijorat sohasida pul mablag'larini deponentlash xaridorning to'langan pul mablag'larini shartnomaga doir tegishli majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar ushlab turish xizmatidir.

Xorijlik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, eskrou - bu aktivlar yoki mablag'lar bitimda bir tomondan boshqasiga o'tkazilgunga qadar egalik qiladigan neytral uchinchi shaxsni anglatadi.

Uchinchi tomon pul mablag'larini xaridor ham, sotuvchi ham shartnoma talablarini bajarmaguncha ushlab turadi.

Eskrou ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar bilan bog'liq, ammo u mablag'lar bir tomondan boshqasiga o'tadigan har qanday vaziyatda qo'llanilishi mumkin.

Eskrou uy sotib olayotganda va ipoteka muddati davomida ishlatilishi mumkin.

Onlayn eskrou san'at yoki zargarlik buyumlari kabi qimmatbaho buyumlar uchun xavfsiz onlayn tranzaksiyalarni taklif qilish usuli sifatida o'sib bormoqda deya ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi PF – 6313 - son Farmoni 1-ilovasida elektron tijoratni hamda boshqa sohalarida oldi-sotdini amalga oshirishda eskrou tizimidan foydalanish qoidalarini belgilash bo'yicha Adliya vazirligi, Markaziy bank, Savdo-sanoat palatasi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirliklariga topshiriq berilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-dekabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son qonunining 24 – moddasida ushbu tizimdan foydalanish keltirilgan. Xususan, "Savdo maydonchalarining operatorlari, to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar o'z axborot tizimlariga yoki bank hisobvaraqlariga "eskrou" xizmatini joriy etishi mumkin" deb belgilangan.

Fikrimizcha, savdo maydonchalarining operatorlari, to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar o'z axborot tizimlariga yoki bank hisobvaraqlariga "eskrou" xizmatini joriy etmasligi ham mumkin. Ushbu xizmat xalqaro darajada tan olingan bo'lib, yuqoridagilardan kelib chiqib, muallif tomonidan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 24 – moddasi 2-xatboshiga quyidagicha o'zgartirish kiritish taklif qilinadi: "Savdo maydonchalarining operatorlari, to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar o'z axborot tizimlariga yoki bank hisobvaraqlariga "eskrou" xizmatini joriy etishlari shart. Xaridor ushbu xizmatga ehtiyoj sezsa foydalanishi mumkin."- deb belgilansa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

III. Xulosa

O'zbekiston Respublikasida elektron valyuta va kripto-aktivlar aylanmasini huquqiy tartibga solish borasida

amalga oshirilgan tahlil bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Birinchidan, hozirgi vaqtda amaldagi normativ-huquqiy bazaning tarqoqligi va asosan qonunosti hujjatlardan iborat bo'lishi huquqni qo'llash amaliyotini murakkablashtirmoqda. Kripto-aktivlarning to'lov qobiliyatining cheklanishi ushbu sohaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunda kripto-aktivlarga doir operatsiyalarning amal qilish doirasidan chiqarib tashlangan bo'lishi huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, kripto-aktivlar bilan bog'liq mulk huquqlarining aniq belgilanmaganligi muammosi mavjud. Konstitutsiya va Fuqarolik kodeksida mustahkamlangan mulk huquqining uch elementi (egallik qilish, foydalanish va tasarruf etish) kripto-aktivlarga to'liq nisbatda qo'llanilmaydi. Normativ hujjatlarda faqat "tasarruf etish huquqi"ning ta'kidlanganligi, lekin foydalanish huquqining cheklanishi kripto-aktivlarni to'laqonli mulk ob'yekti sifatida tan olish imkonini bermaydi.

Uchinchidan, xizmatlar provayderlari faoliyatining to'rt turi (kripto-birja, mayning-pul, kripto-depozitariy va kripto-do'kon) alohida litsenziyalashtirilsa-da, ularning huquqiy maqomi va majburiyatlari qonun darajasida aniq tartibga solinmagan. Smart-kontraktarning yuridik kuchga ega bo'lmasligi va faqat onlayn-kontraktlarni ijro etish vositasi hisoblanishi ham zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga to'liq javob bermaydi.

To'rtinchidan, "eskrou" tizimining joriy etilishi xalqaro amaliyotga muvofiq holda muhim qadam hisoblanadi. Ammo "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 24-moddasida bu xizmatning ixtiyoriy ekanligini belgilash tizimning samaradorligini pasaytiradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Elektron valyuta va kripto-aktivlar aylanmasini tartibga soluvchi alohida maxsus qonun qabul qilish zarur. Bu qonunda kripto-aktivlarning huquqiy maqomi, mulk huquqlarining to'liq doirasi, subyektlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi kerak.

2. Kripto-aktivlarning to'lov qobiliyati masalasini qayta ko'rib chiqish va qonunchilik doirasida ma'lum shart-sharoitlarda to'lov vositasi sifatida qo'llanilishini ta'minlash lozim.

3. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 24-moddasi 2-xatboshini imperativ shakilda quyidagicha bayon etish tavsiya etiladi: "Savdo maydonchalarining operatorlari, to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar o'z axborot tizimlariga yoki bank hisobvaraqlariga "eskrou" xizmatini joriy etishlari shart. Xaridor ushbu xizmatga ehtiyoj sezsa foydalanishi mumkin."

4. Smart-kontraktarning yuridik kuchini ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni qonunchilikda mustahkamlash zarur.

5. O'zbekistonning Xalqaro mulk huquqlari indeksida munosib o'rin egallashi uchun intellektual mulk va kripto-

aktivlar sohasidagi mulk huquqlarini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish lozim.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning huquqiy asoslarini mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va kripto-aktivlar bilan bog'liq munosabatlarni xalqaro standartlarga muvofiq tartibga solishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu sohada qo'shimcha tadqiqotlar olib borilishi, jumladan, qiyosiy-huquqiy tahlil asosida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni milliy qonunchilikka tatbiq etish imkoniyatlarini baholash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda..

References:

1. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; <https://lex.uz/docs/5378966>
2. Narziyev O. "O'zbekistonda kapital bozorining huquqiy tizimini takomillashtirish masalalari" Doktorlik dissertatsiyasi T.:2022. 281-b.
3. "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonun 4-moddasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/573/3942-son; <https://lex.uz/docs/4562834> (murojaat vaqti:2022.02.11).
4. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonun 19-moddasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.11.2019-y., 03/19/582/4014-son; <https://lex.uz/docs/4590452>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 07/18/3832/1452-son; <https://lex.uz/docs/3806053> (murojaat vaqti:2023.02.01).
6. you.tube rasiy sayti. // <https://www.youtube.com/watch?v=slAVXHDKAqc>
7. kommers.uz sayti ma'lumotlari. <https://kommers.uz/irma-markazij-bank-raisining-kripto-aktivlar-haqidagi-fikrlariga-raddiya-berdi>
8. Rakhmonova M. Analysis of the legal practice of Uzbekistan and EU countries in the field of legal regulation of blockchain and cryptocurrency // Jamiyat va innovatsiyalar/ 2022. <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 66-moddasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son.
10. O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990-y., 31-33-son, 371-moddasi; // <https://lex.uz/acts/111466> (murojaat vaqti:2023.27.06).
11. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 - y., 2-songa ilova; 1997-y., 2-son, 56-moddasi; // <https://lex.uz/docs/111189> (murojaat vaqti:2022.10.12).
12. Muxiddinov Sh. Mulk huquqiga egalik qilish tartibi. // https://andijon.adliya.uz/main/uz/interaktivnye-uslugi/sizning-savolingiz/title.php?ELEMENT_ID=11947

(murojaat vaqti:2023.08.03).

13. “Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi tartibga solish maxsus rejimi (“Tartibga solish qumdoni” maxsus rejimi) to’g’risida” NIZOM. 2-ilova matni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-121-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2022-y., 06/22/121/0354-son. <https://lex.uz/docs/3280183>

14. “Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini amalga oshirish” QOIDALARI. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2022-y., 10/22/3379/0743-son. <https://lex.uz/ru/docs/6158330>

15. Xalqaro mulk huquqlari indeksi // <https://www.internationalpropertyrightsindex.org/countries>

16. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2019-yildagi “Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4168-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2019-y., 07/19/4168/2594-son; // <https://lex.uz/docs/4195426>

17. Muxsinov N.T. Raqamli iqtisodiyotning innovatsion vositasi - kripto-valyutalar xususida mulohazalar// Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish: nazariya va amaliyot konferensiya // – 2021y. – 866-bet.

18. O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi qonun, 24 modda. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-y., 03/22/792/0870-son // <https://lex.uz/docs/6213382>

19. Escrow platformasi. <https://www.escrow.com/offer>

20. Karolin B. How Escrow Protects Parties in Financial Transactions. Updated June 24, 2022. <https://www.investopedia.com/terms/e/escrow.asp>

21. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6313-son Farmoni 1-ILOVAsi 4-band. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2021-y., 06/21/6313/0871-son // <https://lex.uz/docs/5633835>